

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI**

**Ismoyilov Diyorbek Bektemir o‘g‘li**

Navoiy davlat universiteti Texnologik ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

**Temirova Anora Komil qizi**

Texnologik ta’lim kafedrası talabasi

**Fayzillayeva Oyxon Qodir qizi**

Texnologik ta’lim kafedrası talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk sarkarda Amir Temurning hayoti, uning davlat boshqaruvidagi faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot, me‘morchilik va san‘atning rivojlanishi yoritiladi. Bu davrda Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiyotga qo‘shgan hissasi hamda, Samarqandning yirik ilmiy-madaniy markazga aylangani alohida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Temuriylar davlati, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, ilm-fan, madaniyat, astronomiya, Samarqand, me‘morchilik, Temuriylar uyg‘onish davri.

Amir Temur 1336-yil 9-aprel Kesh qadimgi Movronaxrda (hozirgi O‘zbekiston) mog‘ul qabilasiga tug‘ulgan. Amir Temur davlat arbobi buyuk sarkarda qo‘mondon markazlashgan davlat asoschisi. Eron Mesopatamiya, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo hududlarini o‘z ichiga olgan. Temuriylar davlatiga asos solgan hamda Temuriylar sulolasining birinchi hisoblanadi. Amir Temur davlat boshqaruv sohasida juda ko‘p yutuqlar erishgan. Amir Temur bir qator harbiy yurishlarni amalga oshirib Oltin O‘rda xonlarini Misr va Suriya mamlakatlarini yuksalib o‘sib borayotgan usmonli imperiyasini shu bilan birga Hindistondagi Dehli sultonligini mag‘lub etgan va shu tariqada Islom olamidagi

eng qudratli hukmdorga aylanadi. Temuriylar saltanatining barpo etilishiga sabab bo'ldi. Amir Temur o'zini Islom qilichi deb atagan hukmdorligining oxiriga kelib Temur Chig'atoy ulusi Hulokuiylar davlati va Oltin O'rdaning barchasining ustidan to'liq nazorat yuritib Xitoyni Yuan sulolasini qayta tiklashga urinadi. Amir Temurga qarshi Xorazm o'lkasi bir necha bor isyon ko'targan. Amir Temur Xorazmga besh marotaba yurish qilgan. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti juda katta ahamiyatga ega bo'lib bu davrda o'sha zamonning ilmiy madaniy va texnikaviy rivojlanishi yuqori bosqichga ko'tarilgan.

Astronomiya, matematika fanlari Temuriylar davrida juda yuksaladi va katta yutuqlarga erishiladi. Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek Samarqandagi o'sha davrning eng ilg'or astronomik asboblari bilan turli astronomik kuzatuvlar olib bordi. Natijada esa o'zining "Ziji Ulug'bek" asarini yaratishga bo'ladi. Ulug'bekning astronomik kuzatuvda asosiy nazariyasi yulduzlarning aniq kordinatalarini va ulkan astranomik jadvalini yaratishda amalga oshiradi. Temuriylar davrida fanlar bilan birga tibbiyot ham rivojlangan. O'rta asrlardagi davrda olimlarning ish olib borishida Abu Ali Ibn Sinoning asarlaridan foydalanilgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" yani Al-Qanun fil tib asari davlatning tibbiyot sohasida yuksalishiga katta tasir ko'rsatgan. Adabiyot va falsafa sohalari ham rivojlanadi. Alisher Navoiy o'zining asarlari bilan adabiyot tarixida yangi bir davr boshlab beradi. San'at va arxitekturada Temuriylar davrida Samarqand zamonning ilmiy va madaniy markaziga aylangan. Ulug'bek madrasasi, Registon maydoni, Shoxi Zinda kabi yodgorliklar va memorchilik inshoatlari bu davrning ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi. Temuriylar davrida minatyura naqqoshlik kabi san'at turlari xam rivojlanadi va butun islom dunyosida mashhur bo'ladi. Temuriylar o'z davrining tarixini o'rganib ko'plab asarlar yaratgan. Zafarnoma asari o'zining tarixiy va badiiy qiymati bilan juda ham mashhur va hozirda ham bu asar asrlardan o'tib yoshlarimiz qo'llarida qunt bilan o'rganilib qiziqish bilan o'qib kelinmoqda.

Temuriylarning maqsadi ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish edi. Samarqandda ko'plab ilmiy savdo markazlari tashkil etadi va bu markazda turli joylardan olim va

savdogarlarni o'ziga chorlaydi. Temuriylar davrida bir qator ixtirolar texnologik yangiliklar yuzaga olib chiqishadi. Ulardan Ulug'bekning astronomik kuzatuvidagi ilg'or usullar yangi navigatsiya asboblari texnologiyani yuksalishini ko'rsatadi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi nafaqat Markaziy Osiyo balki butun Islom dunyosida hatto Yevropaga ham ta'sir qiladi. Temuriylar davlatining ilm-fanga bo'lgan yuksak e'tibori davlat siyosatining ajralmas qismi edi. "Ravzat us-safo" asarida bu aniq namoyon bo'ladi. Madaniy va ilmiy faoliyatga bo'lgan bu yondoshuvning asosiy sabablardan biri Temuriylar hukmdorlari o'zlarining qudratini va ta'sirini faqat harbiy sohada emas, balki ilmiy madaniy sohada ham kengaytirish niyati bo'lgan. Amir Temur bir necha tillarda jumladan, hozirgi o'zbek va uyg'ur tillining ajdodi bo'lgan mo'g'il va fors tillarini bilgan. Amir Temur uyg'onish davrining asoschisi san'atining buyuk homiysi bo'lgan.

Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Bugungi kunda kundandun gullab yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga ishonchini yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasidan chuqur o'rganip amalda foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin. Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryodagi tashriflarida takidlaganlaridek, "Imkon bo'lishi bilan kitob o'qishga harakat qilaman. O'sha kuni Isoatcha bo'sh vaqtim paydo bo'lip qolgandi, Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasida jang tarixini o'qidim. Buyuk sarkardamiz qanday g'alaba qozongani menga juda qiziq edi. To'xtamishxon ham osonlikcha yutqazmagan ekan, bunda Amir Temur bobomizning yuksak harbiy taktika va strategiyasi, dovyurakligi ish bergan. O'zimga yozvoldim, Amir Temur jangda 7ta usulni qo'llagan ekan"<sup>1</sup> deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev Sohibqironning harbiy mahorati haqida.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va markazlashgan davlat asoschisi sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining kuchli harbiy strategiyasi va dono siyosati orqali yirik saltanat barpo etib, davlatni mustahkamlashga erishgan. Amir Temur nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga ham katta e’tibor qaratgan.

Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik yuksak darajada rivojlandi. Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari, Alisher Navoiyning adabiyotdagi ulkan merosi hamda, Samarqand va boshqa shaharlarda bunyod etilgan madaniy obidalar bu davrning buyuk yutuqlaridan hisoblanadi. Shu sababli Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning boy merosi bugungi kunda ham katta qadriyat sifatida e’tirof etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirxond. Ravzat us-safo. – Toshkent: Fan, 2003.
3. Ahmedov B. Amir Temur saboqlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
4. Nematov A. Sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati. – Samarqand: Ma’naviyat, 2015.
5. Tolipov Sh. Samarqand – Temuriylar madaniyat markazi. – Toshkent: Sharq, 2011.
6. Alimov M. Mirzo Ulug‘bek va astronomiya tarixi. – Toshkent: Fan, 2009.